



Zardushtiylik dinining paydo bo'lishi va taraqqiyot bosqichlari

Mo'minova Ziyoda Abbosxon qizi

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani

8-sonli maktabning tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi —Avesto|| ga bagishlangan. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi —Avesto|| qadimiy tarixga ega bo'lgan Ajam va Turon ahli siyosiy, ijtimoiy, madaniy, diniy, xo'jalik hayoti haqida ma'lumot beruvchi ilk muhim yozma manbadir.

Kalit so'zlar: Buyuk, din, qarashlar, avesto, Zardushtiylik, Zardusht, davlat, qo'shin, madaniyat, harbiy yurishlar, kuch-qudrat, janglar, kurashlar.

Kirish.

“Avesto” qayerda paydo bo'lgan? Bu savol azal- azaldan olimlarni juda qiziqtirib kelgan. Lekin olimlar buning ham uddasidan chiqdilar, ya'ni uni qayerda paydo bo'lganligini aniqladilar. Eng qadimiy, mo'tabar qo'lyozma Xorazmda vujudga kelgan. Avestoshunos olimlarning aniqlashi cha, Eron, Ozarbayjon, Afg'oniston va O'rta Osiyo xalqlarining birinchi yodgorliklaridir. “Avesto”da nimalar haqida ma'lumot berilgan degan savol tug'ilishi mumkin? Avvalambor bu kitobda hozir aytgan xalqlarning madaniyati, urf-odatları, tabiati va ko'plab fikrlarini bayon etilgan. Bu kitob eski pahlaviy ya'ni sanskrit tiliga yaqin bo'lgan tilda bitilgan . Kitob boshqa tillarga juda ko'plab tarjima qilingan va “AVESTO” kitobini o'rganishga ya'ni qiziqishga olib keldi. “Avesto”dagi ko'plab va



muhim ma'lumotlar asosan o'g'zaki tarzda avloddan – avlodga o'tib kelgan .Ma'lumotlarga qaraganda, bu kitob ahomoniylar sulolasi poytaxti Sheroz yaqini dagi Taxti Jamshidda saqlangan . “Avesto” dagi ma'lumotlarning qadimgi qismi eramizdan avvalgi 3000 – 2000 yillarga tegishli deb taxmin qiladi olimalar”. Podshoh Doro Ibn Doro xazinasida 12 ming qoramol terisiga tilla bilan bitilgan.

Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi —Avesto|| ga bagishlangan. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi —Avesto|| qadimiy tarixga ega bo'lgan Ajam va Turon ahli siyosiy, ijtimoiy, madaniy, diniy, xo'jalik hayoti haqida ma'lumot beruvchi ilk muhim yozma manbadir. — Avesto|| qadim-qadimdan olimlar, faylasuflar e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Mazkur asarning ilmiy va madaniy ahamiyati beqiyosdir. Mazkur tarixiy manba g'arb va sharq olimlarining birday qiziqishlariga sabab bo'lib kelayotgan manbalardan biridir. Hech bir davrda muqaddas manbani o'rganishga bo'lgan e'tibor susaygani yo'q. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Bu betakrorasarning biz uchun ahamiyati — avvalo uning olis-olis davrlarda ham halqimizning milliy xususiyatlari va fazilatlari, umumbashariy qadriyatlar bilan doimiy uzviy bog'lanib ketganligini isbotlaydigan hayotbaxsh manba bo'lganligi uchun ham qimmatlidir1 . Agar Avestoning birinchi qismi m.avv. II minginchi yillarda yaratilgan deb hisoblasak, u o'sha davrdagi eroniyzabon qabilalar hayotini ya'ni O'rta Osiyo hududida ko'chmanchi chorvachilik bilan shug_ullangan chorvadorlarning turmush tarzi, diniy qarashi va mifologiyasini aks ettiradi. Keyinroq yaratilgan Avestaning II qismlari esa payg__ambar Zardusht va uning diniy ta'limotiga bag__ishlangan bo'lib, bu davrda ko'chmanchi aholini ko'proq o'troq holatga o'tib, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug_ullangani o'z aksini topgan. —Avesto|| kitobining yaratilgan makoni sifatida ishonch bilan O'rta Osiyoni ko'rsatish mumkin. Bu haqda rus sharqshunos olimi Dyakanov ham o'z asarlarida ta'kidlab o'tgan. Bu bugungi O'zbekiston, xususan, Xorazm va unga tutash o'lkalardir. —Avesto|| kitobidagi geografik-tarixiy ma'lumotlar shundan dalolat beradi-ki, Qadimgi Baqtriya va



Eronga oid ba'zi geografik nomlar —Avesto||ga Zardushtiylik dini O'rta Osiyodan chiqib shu o'lkalarga yoyilgan paytlarda kirganligi shubhasizdir.² Yanada keyinroq Ahamoniylar davrida zardushtiylikdini Eronda davlat dini darajasiga ko'tarilib, hukmron dinga aylandi. Tabiiyki, og_zaki nutq tarzida aytib kelingan Avestaning qadimgi madhlari davr o'tishi bilan turli o'zgarishlarga uchragan, to'ldirilgan va ba'zi sodda qismlari tashlab yuborilgan. Zardushtiylik an'analariga ko'ra — Avesto|| Ahamoniylar davrida 9999 xo'kiz terisiga tilla harflar bilan yozilib, Taxtjamshidda saqlash uchun qo'yilgan, lekin Iskandar 1 Karimov I.A."Avesto" kitobi yaratilganligining 2700 yilligiga bag'ishlanib barpo etilgan yodgorlik majmuini ochish marosimidagi nutqidan 2 Is'hoqov M. Avesto va uning insoniyat taraqqiyotidaagi o'rni konferensiya tezislari to'plamidan Oz.R FA 2001., 5-bet Zulqarnaynularni o'zi Eronga bostirib kelganda yondirib yuborishga buyurgan.³ Bu haqda «Tarixi Balamiy» da ham aniq ma'lumotlar berilgan. Abu Rayhon Beruniy ham — Avesta haqida ma'lumotlar berib uni Avisto deb tilga oladi. Uning yozishicha podsho Doro ibn Doro xazinasida Avisto ning 12 ming qoramol terisiga tilla suvi bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat qiluvchilarni o'ldirgan vaqtida, kitobni ham kuydirib yuborgan⁴ . Keyinroq Parfiya shohi Valkash I (51-78-yillarida) davrida matnni tiklash uchun urinishlar bo'lgan.⁵ — Avesto|| o'sha paytlarda unli tovushlarni ifodalamaydigan oromiy yozuvida yozilgan. Avestaning eng oxirgi mukammal matni taxminan milodning IV asrida Shopur II (310-379-y.) davrida shakllangan va uning o'rta fors tiliga tarjimai milodning VI asri Xusrav I (531-579-y.) davrida amalga oshirilgan.||Avesta|| VI asrda ikki kitobdan iborat bolgan tahrir shakliga kelgan⁷ —Avesto||ning kononik matnlari haqida bizgacha saqlanib qolgan o'rta fors tilidagi bayozlari xabar beradi. O'z davrining diniy ensiklopediyasiga aylanib qolgan Denkard kitobida (milodiy IX asri) islomgacha mavjud bo'lgan —Avesto||da 21 kitob borligi haqida ma'lumot beriladi. Har bir kitob «nask» deb atalib, u Avestaning asosiy matni va unga o'rta fors tilida yozilgan tafsirlardan iborat bo'lgan. Denkardda hamma nasklarning mazmuni haqida ma'lumotlar bor. Lekin matnlar bizgacha to'liq yetib kelmagan, ularning ko'pchiligi



arablarning bostirib kelishi va islomning tarqalishi natijasida yoʻq qilib yuborilgan. Bizgacha saqlanib qolgan Avesta matnlarining eng qadimiysi XIII-XIV asrlarga borib tarqaladi⁸. Ular ham asosiy matnni ayrim qismlari yoki parchalaridan iborat boʻlib, toʻliq teksti borligi shu paytlargacha fanga maʼlum emas⁹. Biz yuqorida —Avesto¹⁰ kitobi va uning shakllanishi, tarkib topishiga toʻxtalib oʻtdik. Mazkur asarning tarixiy-ilmiy ahamiyati beqiyosdir. Avesto nafaqat tarixiydiniy manba, unda yana bugungi kunda oʻlmas boʻlib kelayotgan insonlar ongidagi dualistik qarashlar tadqiqi ham juda yuksak oʻrin egallagan. Qadimgi ajdodlarimiz yaxshilik va yomonlik, ilm va jaholat, saxiylik va baxillik, adolat va haqsizlik, 3Avestoning tibbiyot, nujum, ilmu hikmat sohalariga oid matnlarini yunon tiliga tarjima qildirib, qolganini yondirib yuborishga buyurgan. 4 Xalq soʻzi., N 44. 2001.28 5 Abu Rayhon Beruniyning guvohlik berishicha, zamonamizgacha oshib kelgan «Avesta» matni aslining boshda ikki qismi va Zardusht tomonidan ogʻzaki ijod sarchashmalarining kohinlar xotirasidasaqlangan eng qadimgi «Gohlari»Shopur Sosoniy hukumronligi davrida (milodning III asrida) Mugupat Kartir tomonidan yozib olingan. Xusrav I xukumronligi davrida esa (eramizning 531-573-y.) Avesta pahlaviy tiliga tarjima etilib, bu «Zand Avesta» (Avesta shahri) nomi bilan mashhur boʻldi. Olimlarning fikricha, Avesta Xorazm, Soʻgʻd va Baqtriya yozuviga yaqin, Yunon va parfiya yozuvlarining islohqilingan shaklida yozilgan boʻlib, bu Avesta yozuvi deb, madaniyatimiz tarixiga kirgan. 6Oromiy yozuvi finikiy yozuvining bir shakli boʻlib, u mil.avv. IX asrdan to mil.avv. VIII asrgacha Old Osiyoda keng rivoj topdi. Boshqa somiy tillaridagi kabi oromiy yozuvda ham aksariyat undosh tovushlar berilgan, unlilar esa yozuvda aks ettirilmagan, faqat choʻziq unli tovushlargina yozuvda ahyon-ahyonda yozilgan xolos. Bu yozuvdan eng qadimgi afsona va maʼruzalarni diniy vaznlarni yigʻishda foydalanishdi-ki, keyinchalik bular Avesta kanʼon (tekstlariga)lariga kiritildi. 7 M.Isʼhoqov Avesta va uning insoniyat taraqqiyotidaagi oʻrni konferensiya tezislari toʻplamidan Oz.R FA 2001 5-b 8 Tadqiqotchi A dyu Perron «Zend Avesto»ning 1288-yilda koʻchirilgan qoʻlyozmasini fors olimlari fransuz tiliga yordamida tarjima qiladi 9Hindistonning Bombay shahrida zardushtiylik



udumini o_{rgan}adigan Koma ilmiy markazi mavjud. Ana shu ma'naviyat o_{chog}ida Ardasher I davrida ko_{chirilgan} Avesta nusxalari shuningdek, Sankt-Peterburgdagi Saltikov – Shedrin nomidagi Davlat kutubxonasining Sharq qo_{lyozmalari} bo_{limida} Avestaning bir qo_{lyozmasi} mavjud. go_{zallik} va xunuklik, savob va gunoh kabilarning o_{zaro} tafovutlarini anglash, ijobiy tushunchalarning inson hayotidagi o_{rni}, salbiy tushunchalarning zarari haqida to_{xtalib} o_{tiladi}. Shuning o_{ziyoq} xalqimiz uzoq o_{tmishdayoq} ma'naviy jihatdan qay darajada yuksak salohiyatga ega bo_{lganligiga} guvoh bo_{la} olamiz. Bu albatta ilk davlatchilikning ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, estetik asoslarini tashkil eta olgan —Avestol ekanligini ko_{rsatadi}. Birgina Videvdat kitobining o_{zining} —Avestol va zardushtiylik dinining dinining axloqiy ijobiy tushunchalarni naqadar qadrlaganligining isboti sifatida keltirishimiz mumkin. Mazkur qism devlarga qarshi duolardan tarkib topgan bo_{lib}, oddiygina qilib aytadigan bo_{lsak} insonlar orasidan nopoklik, yomonlik, adolatsizlik, dangasalik urug_{ini} yo_{qotishga} qaratilganloigini ko_{rishimiz} mumkin. Zardusht —Gohl_{laridan} —Ushtavad gohl da aytib o_{tilgan} ezku niyatli kishi— Ashavan, yovuz niyatli kishi – Durvand kimsaning o_{limdan} keyingi hayotlari manzarasining o_{ziyoq} inson doim ezgu niyat bilan yashashi kerakligini isbotlab beradi. —Avestolning bugungi kundagi qimmatini belgilab beruvchi yana bir omil shundan iborat-ki, zardushtiylik dinida yer, suv, havo, olov singari tushunchalarning muqaddaslashtirilganligidir. Darhaqiqat, bizda o_{z-o_{zidan}} o_{rinli} savol paydo bo_{lishi} tayin ya_{ni} mazkur tushunchalar har qanday qarashlarda muqaddaslashtirilgan deya, —Avestol shundaylar qatoridagi eng qadimiylaridan biri ekanligi uning qimmatini yana bir bora oshiradi. Bugungi sanoatlashgan va sanoatlashib borayotgan jamiyatlarda yuqorida sanab o_{tilgan} unsurlarning zararlanib borayotganligi va ularni asrash masalasi insoniyat oldida ko_{ndalang} turgan bir vaziyatda, ularni asrashga da_{vat} etilgan asarning ilmiy va ma'naviy darajasi yanada orttiriladi. —Avestolda bola tarbiyasi, oila-nikoh munosabatlari, ota-ona va farzandlar o_{rta}sidagi munosabatlar, ahloq me_{yorlari}, insoniy tuyg_{ular}, jamiyatning bo_{linish} asoslari, inson va tabiat o_{rta}sidagi umumiylik va bog_{liqlik} kabi qator masalarga



ham alohida e'tibor qaratiladi. Bularning har birini esa bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasi va kelajagi uchun muhim bo'lgan asosiy ta'sir etuvchi omillar sifatida bimalol sanab o'ta olamiz. Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz kerak-ki, Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi bo'lmish —Avesto tashuvchi g'oyalar tashviqi hech qachon o'z ilmiy-amaliy, tarixiy va insoniy ahamiyatini yo'qotmaydi. —Avesto mingyilliklar davomida o'zida ezgu g'oyalarni tashuvchi manba sifatida bizgacha yetib keldi va kelajak avlodga ham o'tajak. Bizning vazifamiz esa undagi ezgulik g'oyalari tashviqini amalda tatbiq etishni kengaytirish va kelajak avlodga yetkazishdan iboratdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q-T., "Sharq", 1998.
- [2] Karimov I.A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari" T., "O'zbekiston", 1999
- [3] "Zardushtiylik" T.: Cho'lpon, 1992.
- [4] "Madaniyat va sanoat" Toshkent, Adabiyot va sanoat nashriyoti, 1996
- [5] Axmedov A. "Diniy ta'limot". Toshkent, Fan 1991
- [8] Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. Toshkent, «O'zbekiston», 1994
- [9] Karimov I.A. Amir Temur faxrimiz, g'ururimiz. T., O'zbekiston, 1996.
- [10] Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat.T. «O'zbekiston», 1994.